TEXNOLOGIYA DARSLARIDA YOG‘OCH O‘YMAKORLIK SAN’ATI

KatDPI, Amaliy fanlar va sport kafedrasi assistenti

Naxalboyev Nazarbek Fazliddin o‘g‘li

SamPI, Texnologik ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Erkinova Baxtigul

Annotatsiya: Mazkur maqolada yog‘och o‘ymakorligi san’atining kelib chiqishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, Markaziy Osiyodagi shakllanish jarayonlari hamda o‘zbek yog‘och o‘ymakorligi maktablari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘ymakorlikda qo‘llaniladigan asosiy naqsh turlari — islimiy, bag‘dodi va pargori uslublarining badiiy va texnologik xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu san’at turining milliy madaniyatdagi o‘rni va zamonaviy rivojlanish istiqbollarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Yog‘och o‘ymakorligi, amaliy san’at, islimiy naqsh, bag‘dodi uslub, pargori, milliy hunarmandchilik, Markaziy Osiyo san’ati.

Yog‘och o‘ymakorligi insoniyat tarixidagi eng qadimiy amaliy bezak san’ati turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu san’at turi yog‘och materialiga badiiy ishlov berish orqali turli naqsh va tasvirlarni yaratishga asoslanadi. Yog‘ochning tabiiyligi, ishlov berish qulayligi va estetik ko‘rinishi uni qadimdan turli madaniyatlarda keng qo‘llanishiga sabab bo‘lgan.

Markaziy Osiyo hududida, xususan O‘zbekiston hududida yog‘och o‘ymakorligi nafaqat maishiy buyumlarni bezashda, balki me’morchilik obidalarini bezashda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Yog'och o'ymakorligi - bu yog'och yuzasiga turli naqsh, bezak yoki tasvirlarni kesish, o'yish va shakllantirish orqali badiiy buyum yaratish jarayonidir. U xalq amaliy bezak san'atiningmuhim turlaridan biri hisoblanadi.

Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog‘och buyumlarga chizib, kesib, o‘yib, ishlanadi. Badiiy san’atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo‘lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Evropa va Osiyo mamlakatlarida Yog‘och o‘ymakorligining rivojlanib o‘ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Arxeolog olimlarimimzning izlanishlaridan O‘rta Osiyoda gorelfli, ya’ni juda bo‘rtiq (1 mm dan 20 mm gacha) releflar bilan har xil narsalarni Yog‘ochdan o‘yib ishlaganligi ma’lum bo‘ldi. Xalq yaratgan asarlar o‘zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, Yog‘ochdan ishlangan ajoyib yog‘och o‘ymakorligiga har qancha ishlov berilishiga qaramay asrlar o‘tishi bilan ular namga dosh beraolmay deyarli chirib, yo‘q bo‘lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda.

V-VI asrlarda yog‘och o‘ymakorligi namunalari Surxondaryo vohasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan. Olimlarimizning aniqlashicha bundan 1-1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda naqsh o‘ymakorligi san’ati bo‘lib, u juda yaxshi rivojlangiligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar Samarqand Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi arxeologik qazilmalardan topilmoqda.

Amir Temur XIV asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo xalqlarini birlashtirish orqali bu vayronagarchiliklarga chek qo‘ydi. U xalqimizning madaniyati, san’ati, shu jumladan, Yog‘och o‘ymakorligiga O‘z qurgan obidalari orqali hissa qo‘shdi. Samarqandga yirik-yirik usta ulamolarni to‘plab, masjidlar, madrasalar, saroylar va boshqa ulkan inshootlar qurdirdi.

XVI asrda arxitektura inshootlarining ko‘rinishi yanada takomillashdi, ko‘priklar, savdo rastalari qurila boshladi. Jome’ masjidlari saroy tipida serhasham qilib, qishlik va yozlik qilib qurilib, katta ayvonlar o‘yma ustunlari va eshiklari ham o‘yma bezaklar bilan bezatiladi.

XVIII asrga kelib O‘rta Osiyoda avj olgan o‘zaro feodal nizo va urushlar eronning Xivaga qilgan hujumi va boshqalar arxitektura va badiiy hunarmandchilikka salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘pgina musavvir va hunarmandlar Hindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur bo‘ldilar.

XIX asrga kelib me’morchilik va amaliy bezak san’ati rivojlana boshladi. Saroy qurilishlari xalq me’morchiligi kompazitsiya uslublaridan foydalanib ichkari hovli, hovuz, ko‘p ustunli ayvon, sinchli imoratlar qurila boshladi. Xalqimizning ijodkor ustalaridan usta Shirin Murodov, Mirxamid Yunusov, Shamsiddin G‘ofurov, Yunus Ali Musayev, Usmon Ikromov, Quli Jalilov, Sulaymon Xo‘jaev, Xaydar Najmiddinov, Maqsud Qosimov, Mahmud Usmonov, Abdulla Boltaev, Abdurazzoq Abduraxmonovlar o‘z hunarlarini maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda yoshlarga o‘rgatishni yo‘lga qo‘ydilar. Keyinchalik esa o‘z uslubi, yo‘nalishiga ega. Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qo‘qon kabi yirik Yog‘och o‘ymakorligi maktablari rivoj topdi.

O‘zbek xalqining eng ko‘zga ko‘ringan ustalaridan Olimxon Qosimjonov (1878-1952), Sulaymon Xo‘jaev (1866-1946), Maqsud Qosimov va boshqalar ajoyib namunalar yaratdilar. Ular o‘ziga xos Yog‘och o‘ymakorligi maktablari yaratib ajoyib shogirdlar etishtirishdilar.

Yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan naqsh turlari.

O‘zbekistonda yog‘och o‘ymakorligi oddiy bolalar tumorchasidan tortib bino ustunigacha bezab kelinadi. Yog‘och o‘ymakorligi ustalari qadimdan uch uslub asosida bezab kelganlar. Ular bag‘dodi, islimiy va pargoridir.

Pargori uslub — sirkul (pargor) yordamida chizilib, o‘yib ishlanadigan geometrik naqsh turidir. Ushbu uslub murakkabligi bilan ajralib turadi va yuqori darajadagi mahorat talab qiladi. Naqshlar aylana, uchburchak, to‘rtburchak va ko‘pburchak shakllar asosida quriladi.

Pargori quyidagicha bajariladi. Yong‘oq, chinor, qayraqoch, tol yog‘ochlarga o‘ymakorlik uchun yaxshi materialdir. Tayyorlangan Yog‘och yuzasiga qog‘oz elimlanib, unga rapporti aylana to‘rtburchak, uchburchak, ko‘pburchak va hakazolardan iborat naqsh kompozitsiyalari pargor chizg‘ich yordamida chiziladi. Keyin esa asboblar yordamida o‘yiladi. O‘ymaning chuqurligi 1-1,5 mm gacha bo‘ladi. Naqsh o‘yishda 30-35 tacha har xil o‘yuvchi asboblar ishlatiladi. Yog‘och o‘ymakorligida bag‘dodi uslubi O‘rta Osiyo, Hindiston, Afg‘oniston, eron va boshqa joylarda keng tarqalgan.

Bag‘dodi uslub — geometrik shakllarga asoslangan naqsh turi bo‘lib, to‘g‘ri va egri chiziqlar uyg‘unligidan tashkil topadi. Bu uslubda eshiklar, ustunlar va mebel buyumlari keng bezatiladi.

Bag‘dodi uslubi bu geometrik shaklda o‘yilgan naqshlardandir. Girih o‘simliksimon naqshlardan farq qiladi. O‘simliksimon, ya’ni islimiy naqshlar barg, gul, novda va boshqalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklidir. Geometrik naqsh to‘rtburchaklar, ko‘pburchaklar va egri chiziqlardan tashkil topadi.

yog‘och o‘ymakorligi ustalari bu naqsh turini yaxshi bilganlari uchun ham eshik, ustun, panjara, xontaxtalarga bag‘dodi uslubida naqsh ishlab kelganlar.

Islimiy uslub — o‘simliksimon naqshlardan iborat bo‘lib, barg, gul, novda va kurtaklarning stilizatsiyalashgan shakllaridan tashkil topadi. Islimiy naqshlar bir-biriga ulanib, uzluksiz kompozitsiya hosil qiladi va o‘zbek o‘ymakorligida eng keng tarqalgan uslub hisoblanadi.

Islimiy uslub o‘zbek o‘ymakorligida juda keng tarqalgan. Islimiy klassik naqsh turi bo‘lib, barg, gul, kurtak, tanob va boshqalardan tashkil topgan bir-biriga ulanib takrorlanishdan hosil bo‘lgan naqsh. Islimiyning turlari juda ko‘p, usta kompozitsiyasi qaysi shakl bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, shu shaklning nomini qo‘shib aytiladi. Chunonchi islimiy mehrob, islimiy bodom, islimiy bulbul va boshqalar.

Xulosa

Yog‘och o‘ymakorligi o‘zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiruvchi muhim amaliy san’at turi hisoblanadi. Uning tarixiy ildizlari chuqur bo‘lib, asrlar davomida takomillashib kelgan. Bugungi kunda ushbu san’atni texnologiya darslari orqali yosh avlodga o‘rgatish milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.: Toshkent «O`zbekiston» NMIU, 2017.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.: Toshkent «O`zbekiston» NMIU, 2016.
3. Sh.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.: Toshkent «O`zbekiston» NMIU, 2017.
4. Sh.M.Mirziyoyev. Taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz.: Toshkent «O`zbekiston» NMIU, 2017.
5. Sh.K.Shoyoqubov “O‘zbek xalq amaliy-bezak san’ati” Toshkent 2009
6. Sh.K.Shoyoqubov “Zamonaviy O‘zbekiston miniatyurasi” Toshkent 2006
7. Q.M.Abdullayeva, M.A.Maksumova, M.Raximjanova. “Gazlamaga badiy ishlov berish”.- Toshkent 2011
8. D.Murodova “O‘zbekiston do‘ppilari” Toshkent 2004
9. S.Bo‘latov “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati” Toshkent 2001